

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqi asosida

UDK: 338.48 (575.1)

**NARZULLOYEVA CHAROS QAHHOROVNA**  
**ZIYORAT TURIZMINI HUDUDLARDA RIVOJLANTIRISH**  
**TENDENSIYALARI**

71010403– “Turizm (Ziyorat turizmi)” mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: dots. Sayfutdinov Sh.

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

\_\_\_\_\_ -sonli bayonnoma " 26 " aprel \_\_\_\_\_ 2023y

Kafedra mudiri: I.A. Axmedov

(imzo) (sana)

Ilmiy rahbar: Sh.S. Sayfutdinov

(imzo) (sana)

Talaba: Ch.Q. Narzulloyeva

(imzo) (sana)

Dissertatsiya mavzusi magistratura bo'limida 2022-yil " 20 " dekabr

№ 808T raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bosqichlari, ichki turizmning o'рни va ahamiyati, yangi turmarshrutlarni yaratish va ularni rivojlantirish yo'nalishlari, mintaqalarda turistik resurslardan samarali foydalanish usullari, bu borada xalqaro hamkorlikda olib borilayotgan ishlarning samaradorligi, turizmning jahon iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati va o'рни haqida so'z boradi.

Shuningdek, dunyoda turizm sohasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib kelayotgan turizm sohasida o'z nufuziga ega bo'lgan xalqaro turistik tashkilotlar va ularning maqsad va vazifalari, shu bilan birgalikda mamlakatimiz bilan ikki tomonlama xalqaro hamkorlik aloqalari tahlillari keltirilgan.

Bundan tashqari pandemiya davrida hududlarda ziyorat turizmi obyektlarida qilingan ishlar tahlili yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ziyorat turizmi, ichki va tashqi turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, pandemiya, turizmni tahlil qilish.

## ANNOTATION

In this master's thesis, the stages of the development of pilgrimage tourism in our country, the role and importance of domestic tourism, directions for creating new tour routes and their development, methods of effective use of tourist resources in the regions, the effectiveness of international cooperation in this regard, the importance of tourism in the development of the world economy and its place.

Also, the international tourism organizations that have been contributing to the development of tourism in the world, which have their influence in the field of tourism, and their goals and tasks, as well as the analysis of bilateral international cooperation relations with our country, are presented.

In addition, the analysis of the work done in the pilgrimage tourism objects in the regions during the pandemic is highlighted.

**Key words:** Pilgrimage tourism, domestic and foreign tourism, historical and pilgrimage sites, cultural sites, pandemic, tourism analysis.



# Ziyorat turizmini hududlarda rivojlantirish tendensiyalari

## MUNDARIJA

	Annotatsiya .....	3
	Mundarija .....	5
	Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	6
	Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....	6
	Keltirilgan qisqartmalar .....	6
	<b>KIRISH</b> .....	7
	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	7
	Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....	8
	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	9
	Tadqiqot obyekti va predmeti .....	10
	Tadqiqotning ilmiy yangiligi .....	10
	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	10
<b>I bob.</b>	<b>ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	12
1.1.	Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	12
1.2.	Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....	18
1.3.	Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi .....	24
<b>II bob.</b>	<b>METODOLOGIYA</b> .....	27
2.1.	Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....	27
2.2.	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....	27
2.3.	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	28
2.4.	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	29
<b>III bob.</b>	<b>TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	30
3.1.	O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ahamiyati va zarurati .....	30
3.2.	O'zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishini bugungi kundagi holati .....	33
3.3.	O'zbekiston hududlarida ziyorat turizmini rivojlantirishdagi asosiy muammolar .....	38
3.4.	Buxoro viloyatida muqaddas ziyoratgohlarning ziyorat turizmini rivojlanishiga ta'siri.....	42
3.5.	O'zbekiston hududlarida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari .....	50
3.6.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....	52
	<b>XULOSA</b> .....	62
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	65
	<b>ILOVALAR</b> .....	67



## KIRISH

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

Soʻnggi vaqtlarda turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga koʻra, turizm XXI asrning eng daromadli sohasiga aylandi. Bugungi kunga kelib u dunyo boʻyicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyingi uchinchi oʻrinni egallab turibdi. Turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar oʻrtasidagi aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini oʻzaro yaqinlashtirib, ularning bir-biri bilan munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohalarga ijobiy taʼsir koʻrsatib, mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda oʻsishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda oʻzini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi, hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, koʻpgina davlatlar va tadbirkorlar turizmni rivojlantirishga katta eʼtibor bermoqdalar.

Soʻnggi vaqtlarda har bir sohani isloh qilish bilan birga, yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqish yangilanayotgan Oʻzbekiston davlatining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakat iqtisodiyotini, aholi turmush tarzini, shuningdek, Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻsini oshirishga xizmat qiladi.

Hech kimga sir emaski, soʻnggi bir necha yil ichida mamlakatimizda turizm sohasiga oid qator qonunlar, farmonlar, qarorlar qabul qilinmoqda. Buning yaqqol namoyondasi sifati oʻlaroq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevralda eʼlon qilingan, “Oʻzbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6165-sonli va Oʻzbekiston